



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

**2024- yil
yanvar- avgust**

2024-yilning yanvar-avgust oylarida, Toshkent shahrida jami 28 000,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik korxona va tashkilotlar

6,4

35,5

58,1

Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil 1-sentabr holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



Yillar kesimida soni



3 405

Bino va inshootlar
qurish


719

Fuqarolik obyektlarini
qurish

2 793

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 98,2 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'naliishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 49,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 99,1 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 10,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 40,4 foiz ulushni va 95,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.09.2023- y.	01.09.2024- y.	
Toshkent shahar	7 043	6 917	98,2

tumanlar:

Bektemir	172	191	111,0
Mirzo Ulug'bek	945	921	97,5
Mirobod	630	600	95,2
Olmazor	520	499	96,0
Sergeli	434	437	100,7
Uchtepa	424	375	88,4
Chilonzor	834	782	93,8
Shayxontohur	516	496	96,1
Yunusobod	839	829	98,8
Yakkasaroy	717	707	98,6
Yangihayot	247	299	121,1
Yashnobod	765	781	102,1



**2024- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra,
Toshkent shahrida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug‘bek (13,3)



Yunusobod (12,0)



Chilonzor (11,3)





Qurilish ishlari 2024- yil yanvar- avgust oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	28 000,2	9 926,8	16 278,7	1 794,8
tumanlar:				
Bektemir	807,4	288,2	473,3	45,8
Mirzo Ulug'bek	2 908,8	797,2	1 894,3	217,2
Mirobod	3 977,0	1 275,7	2 556,8	144,6
Olmazor	1 897,2	648,6	1 091,5	157,0
Sergeli	971,4	162,2	653,0	156,1
Uchtepa	924,5	162,5	571,6	190,4
Chilonzor	2 300,3	439,3	1 718,5	142,5
Shayxontohur	2 488,6	1 459,2	887,6	141,8
Yunusobod	4 996,4	3 020,5	1 798,5	177,4
Yakkasaroy	2 924,7	840,1	1 951,0	133,6
Yangihayot	1 257,5	277,2	851,3	129,0
Yashnobod	2 546,4	556,1	1 831,1	159,2

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 9 926,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 165,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 35,5 % ni tashkil etdi.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,4 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 m.) Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,7 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 m.) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,1 %i to‘g‘ri kelib, 2023-yil yanvar-avgust oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 8,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 100,2 % ni tashkil etgan holda 16 278,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



58,1

2024- yil
yanvar-avgust

67,0


2023- yil
yanvar-avgust



MA‘LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush hududdagi ko‘rsatkichi Mirobod tumanida (2 556,8 mlrd. so‘m yoki ulushi 15,7 %) Yakkasaroy tumanida (1 951,0 mlrd. so‘m yoki ulushi 12,0 %), va Mirzo Ulug‘bek tumanida (1 894,3 mlrd. so‘m yoki ulushi 11,6 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 6,4 %ni tashkil etdi yoki 1 794,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 90,1 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 702,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 27 297,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,5 % va 97,5 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-avgust oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **60,7 %** i yoki **16 983,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

43,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7 307,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **43,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **8 700,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,2 %** ni tashkil etdi.

51,2 %

5,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **975,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **5,7 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	28 000,2	115,5	100,0
tumanlar:			
Bektemir	807,4	108,3	2,9
Mirzo Ulug‘bek	2 908,8	110,6	10,4
Mirobod	3 977,0	104,8	14,2
Olmazor	1 897,2	110,3	6,8
Sergeli	971,4	98,2	3,5
Uchtepa	924,5	97,4	3,3
Chilonzor	2 300,3	100,3	8,2
Shayxontohur	2 488,6	140,4	8,9
Yunusobod	4 996,4	152,6	17,8
Yakkasaroy	2 924,7	109,0	10,4
Yangihayot	1 257,5	103,1	4,5
Yashnobod	2 546,4	117,3	9,1



Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

21,5

2023- yil
yanvar-avgust

34,1

65,3

56,5

13,2

9,4

2024- yil
yanvar-avgust



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 34,1 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar-avgust ko'rsatkichga nisbatan 12,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,8 % punktga kamayib, 56,5 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga kamayib, 9,4 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 48,5 % ni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-avgustga nisbatan 14,8 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 51,5 % (14,8 % punktga kamayish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari
2023- yil yanvar-avgust



Kichik korxona va mikrofirmalar
2024- yil yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi va 28,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 71,4 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi.

ulushi % da

24,8

2023- yil
yanvar-avgust

2023- yil
yanvar-avgust

75,2

28,6

2024- yil
yanvar-avgust

2024- yil
yanvar-avgust

71,4

**Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi**

**Kichik korxona va
mikrofirmalar
ulushi**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust

	Qurilish ishlari, mldr. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	28 000,2	19 280,0	4 304,4	4 415,8
tumanlar:				
Bektemir	807,4	561,3	118,7	127,4
Mirzo Ulug'bek	2908,8	2203,5	484,7	220,6
Mirobod	3977,0	2744,1	586,3	646,6
Olmazor	1897,2	1386,9	358,8	151,5
Sergeli	971,4	680,3	159,4	131,7
Uchtepa	924,5	633,3	167,7	123,5
Chilonzor	2300,3	1760,0	372,9	167,4
Shayxontohur	2488,6	1559,0	291,2	638,4
Yunusobod	4996,4	3378,2	690,2	928,0
Yakkasaroy	2924,7	1899,4	486,4	538,9
Yangihayot	1257,5	873,8	182,2	201,5
Yashnobod	2546,4	1600,2	405,9	540,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust



ulushi % da



2024- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani (4 996,4 mlrd.so'm), Mirobod tumani (3 977,0 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (2 924,7 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (2 908,8 mlrd.so'm), ga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)